

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief:

Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries:

Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Samixon Ashirbayev, Janat Aymuhambet

Turkiy til strukturasi mahalliy ziyolilar talqinida.....6

Munavvara Qurbonova

Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi.....18

Gulnoraxon Niyazova

Detektiv fantastikadagi pragmatik moslashuv.....32

Afag Gemberova, Gulgun Huseynli

Tilshunoslikda yangi fundamental tushuncha:

“Dunyoning til manzarasi.....56

Jumanazar O‘rozov

Sud-tergov jarayoni bilan bog‘liq yozma matnlarning identifikatsion lingvistik belgilari xususida.....68

Sanjar Islomov

Milliy va anglosakson ilmiy kontekstlarida lingvokulturologiya.....83

Kamaraddin Davletov

Olamning hissiy-konseptual manzarasi, hissiyotlar va qo‘rquv konsepti.....106

Adabiyotshunoslik

Shahlo Hojiyeva

Sharq g‘arb ma‘rifatchilik adabiyotining uyg‘unligi va o‘ziga xosligi.....120

Oynisa Hojiyeva

Özbek – Türk Atasözlerinin Karşılaştırmalı Analizi.....138

Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi

Munavvara Qurbonova¹

Abstrakt

Maqolada “nutqiy akt” tushunchasining pragmatic mohiyati yoritilgan. Nutqiy aktning zaruriy komponentlari qayd etilgan. Muloqot jarayonida nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish soʻzlovchining kommunikativ maqsadiga bogʻliq boʻlsa-da, insonning ruhiy-emotsional holati, gender xususiyati, yosh jihati kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy taʼsir koʻrsatishi, bu holat ayniqsa, bolalar nutqiy faoliyatida yorqin namoyon boʻlishi haqida toʻxtalib oʻtilgan. Unda bolalar kommunikativ faoliyatida illokutsiyaning yuzaga kelish sabablari izohlangan. Ular nutqiga oid illokutiv aktlar semantik xususiyatlariga koʻra tasniflangan. Bolalar muloqotida nutqiy aktning bir qator mazmuniy turlari qoʻllanilishi, ular tomonidan hosil qilingan nutqiy aktlarning har bir mazmuniy turi oʻziga xos sintaktik strukturaga ega boʻlishi, ayrim akt koʻrinishlari hatto maxsus leksik-semantik qatlamiga egaligi bilan ajralib turishi, illokutsiya kuchi nutq egasining axborotni bayon qilish usuli, taktikasi bilan bogʻliq boʻlishi, bolalarda ham muayyan axborotni bayon qilishning oʻziga xos usullari mavjudligi, ular tomonidan kommunikativ niyatning yashirin ifodalanishi xususida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: *illokutsiya, nutqiy akt, nutqiy xulq, nutqiy harakat, nutqiy vaziyat, bolalar nutqi, kommunikativ maqsad, kommunikativ faoliyat, pragmatlingvistika, presuppozitsiya.*

Kirish

Tilshunoslik fani taraqqiyotining soʻnggi bosqichida lisoniy birliklarni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bogʻliq holda oʻrganish tendensiyasi markaziy oʻringa chiqdi. Bu yonda-shuvda lingvistik hodisalarni til egalarining borliqni idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi, lisoniy

¹ Qurbonova Munavvara Abdujabborovna – professor, filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: munavvara2013@yandex.ru

ORCID ID: 0000-0002-3899-232X

Iqtibos uchun: Qurbonova, M.A. 2024. “Bolalar nutqiga xos illokutiv aktlarning semantik tasnifi”. *Oʻzbekiston: til va madaniyat* 2: 18-31.

tafakkuri, til ko'nikmasi, nutqiy faoliyati, nutq obyekti haqidagi bilimlari, ruhiyati, voqelikka munosabati, kasb-kori, yoshi, gender belgisi, hududiy xosligi, jismoniy holati singari nolisoniy omillar bilan bog'liq holda o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Bunda ayniqsa, nutqiy akt turlari hamda ularning ifodalanish usullari tadqiqi masalasi alohida diqqatga sazovohdir.

Nutqiy akt jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinib, nutqiy xulq qoidalariga muvofiq tarzda amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakat hisoblanadi. Nutqiy akt jamiyat hayotida turli ijtimoiy rollarni bajaruvchi so'zlovchi va tinglovchidan iborat muloqot ishtirokchilarini taqozo etadi, ularning til bilimi va ko'nikmalariga asoslanadi. Nutqiy aktning amal qilishi uchun shaxs omilidan tashqari nutq vaziyati, nutq obyekti (nutqiy aktga asos bo'lgan voqelik fragmenti) kabilar ham zaruriy omil sifatida ishtirok etadi. Nutqiy akt turlari umumiy mazmuniy guruhlariga birlashsa-da, turli sotsial guruhlarda bir-biridan farqlanadi, hatto jamiyat a'zolarining har biri uchun individual xususiyatlarga ega bo'la oladi.

M.Hakimov nutqiy aktda umumiy holda quyidagi komponentlar ishtirok etishini qayd etadi: so'zlovchi, tinglovchi, nutq obyekti – faktik material hamda nutqiy vaziyat. [Hakimov 2001, 108] Nazarimizda, nutqiy aktning amal qilishi uchun zarur bo'lgan komponentlar qatoriga nutq ishtirokchilarining umumiy til bilimi va til ko'nikmasini ham kiritish lozim.

Nutqiy akt so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgani bois uning turli ko'rinishlari farqlanadi. Xususan, buyruqni ifoda etuvchi nutq ko'rinishi buyruq nutqiy aktini, so'roqni ifoda etuvchi nutq parchasi so'roq nutqiy aktini, istakni ifodalovchi nutq ko'rinishi istak nutqiy aktini hosil qiladi. Manbalarda nutqiy aktning xabar qilish, istakni bayon etishga qaratilgan nutqiy akt, majburiyat akti, ijtimoiy etiket ko'rinishlari, emotsionallikni ifodalovchi aktlar, ma'qullovchi, taqiqlovchi, nutqni to'xtatuvchi akt kabi turlari qayd etiladi.

J.Ostin tasnifida nutqiy aktning lokutiv, illokutiv, perlokutiv kabi turlari ajratilgan [Ostin 1986, 83-91]. J. Serl esa nutqiy aktning quyidagi turlarini farqlagan: talaffuz akti, referensiya va predikatsiyani yuzaga chiqaruvchi propozitsional akt, so'zlovchi maqsadini namoyish etuvchi illokutiv akt. J. Serl asosiy e'tiborini illokutiv akti o'rganishga qaratgan [Serl 1986, 51-69].

Nutqiy akt nazariyasida J.Ostin tomonidan kiritilgan illokutiv akt kuchi va u asosidagi illokutiv akt turlarining tasnifi masalasi

ham markaziy o'rinni egallaydi. J.Ostin performativ fe'llarga asoslangan holda illokutiv aktning *verdictivlar, ekzersitivlar, komissivlar, bexabitivlar, ekspozitivlar* kabi turlarini ajratgan. J. Serl J.Ostindan farqli tarzda illokutiv akti tasniflashda fe'llarga emas, aktning o'ziga asoslangan va illokutiv aktning 12 mezon asosidagi quyidagi turlarini farqlagan: *reprezentativlar, direktivlar, komissivlar, ekspressivlar, deklarativlar* [Serl 1986, 170-194]. J.Ostin va J. Serl tomonidan ajratilgan nutqiy akt turlarining har biri manbalarda yetarlicha sharhlangan va ularga munosabat bildirilgan [Gongalo 2011, 45-49].

Muloqot jarayonida nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish so'zlovchining kommunikativ maqsadiga bog'liq bo'lsa-da, insonning psixologik-emotsional holati, gender xususiyati, yoshi kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, bolalar nutqiy faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq so'roqni ifoda etuvchi nutqiy akt shakllaridan foydalanadilar. Bu holat ularning tashqi olamni bilishga o'ta qiziquvchanliklari bilan bog'liq. Xususan, uch yoshli bolalarda nutqiy muloqotning asosiy qismi so'roq aktlaridan tashkil topadi.

Nutqiy aktning axborot almashinuv doirasi

Nutqiy akt axborot almashinuv doirasida amal qiladi va muloqotning verbal birligi sanaladi. Muloqot jarayonida nutq ishtirokchilari turli nutqiy aktlardan foydalangan holda nutqiy faoliyatni amalga oshiradilar.

Nutqiy aktning og'zaki shaklida akti talaffuz qilish va uni bir vaqtda eshitib idrok etish jarayonlari amal qiladi, yozma shakli esa akti yozma bayon qilish va uni o'qib idrok etish jarayonlarini qamrab oladi. Nutqiy aktning yozma turida so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ harakati vaqt va makonda farqlanadi. Agar nutq ishtirokchilari umumiy til bilimiga (hatto imo-ishora tiliga) ega bo'lmasalar, nutqiy akt nafaqat tomonlarga tushunarsiz, balki uning amalga oshishi dargumon bo'lib qoladi.

Ayrim tilshunoslar nutqiy aktda ko'zlangan maqsadning ikki turini farqlaydilar: boshlang'ich maqsad va natijaviy maqsad [Pochepsov 1986, 75].

Boshlang'ich maqsad gapning semantik-struktur tuzilishiga mos tarzda voqelanadi, natijaviy maqsadga sintaktik struktura bilan bog'liq bo'lmagan holda anglashiluvchi maqsad sifatida qaraladi. *"Kitobimni qaytar!"* tuzilmasida boshlang'ich intensiya

so'zsiz, buyruq, talab qilishdir. Ammo natijaviy maqsad harakatlari, birinchidan, son jihatidan ko'p, ikkinchidan, ular uchun gapning struktur-semantik tuzilishi hech qanday ahamiyatga ega emas. Natijaviy intensiyaning shakllanishi gaplarning nafaqat ma'no xususiyatlari, balki ularning faollashuv muhiti, nutq konteksti bilan ham bog'liqdir. Boshqacha aytganda, natijaviy maqsad akti, lisoniy harakatlar bilan bir qatorda, nolisoniy harakatlarni ham qamrab oladi". [Safarov 2008, 75] Nazarimizda, natijaviy maqsadning muayyan nutqiy akt orqali anglanishi inobatga olinsa, uni ayni nutqiy akt semantik-sintaktik strukturasi bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

Nutqiy aktni hosil qiluvchi sintaktik qurilmalar

Nutqiy akt qaysi jihatdan tasniflanmasin va qanday turlarga ajratilmasin, uning har bir turi o'ziga xos sintaktik strukturaga ega bo'ladi. Nutqiy aktni hosil qiluvchi sintaktik qurilmalar ham semantik, ham mantiqan bir-biri bilan o'zaro bog'lanadi. Nutqiy aktning sintaktik strukturasi sintaksisning tahlil obyekti bo'lsa, uning shakllanish bosqichlari, kommunikativ maqsadga bo'ysundirilishi, voqelanishida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy muhit, muloqot vaziyati, nutq egalarining til ko'nikmalari kabilar pragmatlingvistikaning tadqiq obyektlari hisoblanadi.

Tilshunoslikda nutqiy aktni bayon etishning bevosita va bilvosita turlari ham farqlanadi. So'zlovchi muloqot jarayonida o'z maqsadidan kelib chiqqan holda nutqiy aktning yo bevosita, yo bilvosita turidan foydalanadi. Muayyan nutqiy akt uni ifodalashga xoslangan sintaktik struktura orqali bayon etilganda nutqiy aktning bevosita ifodalanishi amal qiladi. Masalan, so'roq gap shaklidagi sintaktik qurilmalar orqali so'roqni ifoda etuvchi axborotning yoki darak gap orqali xabarning ifoda etilishi bevosita ifodalanish sanaladi. Muayyan nutqiy aktni uni ifodalashga xoslanmagan sintaktik struktura orqali bayon etishda esa bilvositalik sodir bo'ladi. Bunda ikki xil holat kuzatiladi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlanib qoladi, unga qo'shimcha sintaktik ma'no yuklanadi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali u ifodalashga xoslangan axborot va qo'shimcha axborot bayon etiladi. Bunda ayni sintaktik strukturaning semantik ko'lamiga kengayadi; b) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi butkul yo'qoladi, uning o'rnini o'zga sintaktik ma'no egallaydi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali so'zlovchi maqsadi bilan bog'liq tarzda o'zga axborot bayon etiladi.

Sh.Safarov pragmatik ma'noning ko'chishi va nutqiy akt

hosil bo'lishida birlamchi ma'no yo'qolmasdan, balki uning qo'shimcha, ikkilamchi ma'no bilan bitishuvi haqida fikr yuritadi. Olimning ma'lumot berishicha, J.Serl va uning izdoshlari bilvosita nutqiy aktda bir paytning o'zida ikki illokutiv harakat bajariladi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, "*Can you pass me salt?*" ("*Tuzni menga olib bermaysizmi?*") gapida birlamchi illokutsiya savol bo'lsa, ikkilamchi yoki bilvosita ifodalanayotgan illokutsiya iltimosdir [Safarov 2008, 92]. Sh.Safarov bu xulosani ma'qullar ekan, pragmatik ma'no ko'chishi va shu yo'sinda bilvosita nutqiy akt hosil bo'lishida birlamchi ma'no yo'qolmasdan, balki qo'shimcha, ikkilamchi ma'no bilan bitishadi, deb hisoblaydi. U bu turdagi nutqiy tuzilmalarda birlamchi mazmunning saqlanishini "*Can you open the door?*" ("*Eshikni ochib qo'ya olmaysizmi?*") kabi gaplarga har qanday holda ham "*Ha*" yoki "*Yo'q*" deb javob berish imkoni borligida ko'rish mumkin, deb hisoblaydi [Safarov 2008, 92].

Bizningcha, bu tipdagi gaplarda har doim ham birlamchi sintaktik ma'no saqlanib qolavermaydi. Masalan, "*Kim yaxshi yashashni xohlamaydi?*" gapida so'roq mazmuni yo'qoladi. Buni ayni gapga javob berishga hech qanday hojat yo'qligi bilan ham izohlash mumkin. Yuqorida tahlil etilgan "*Eshikni ochib qo'ya olmaysizmi?*" gapida savolga javob berish imkonining mavjudligi gap kesimi tarkibida qo'llangan *olmoq* ko'makchi fe'li bilan bog'liq. Mazkur ko'makchi fe'l harakatni bajarishga imkoniyat bor-yo'qligi ma'nosini hosil qiladi. So'zlovchi muayyan shaxsning eshikni ochib qo'yishga imkoniyati bor yoki yo'qligini aniqlash va shu asosda uni harakatni bajarishga undashni maqsad qilgan hollarda *olmoq* ko'makchi fe'li qurilmalaridan foydalanadi. Agar ayni gap "*Eshikni ochib qo'ymaysizmi?*" tarzida tuzilsa, gapdan harakatni amalga oshirish imkoni mavjud yoki mavjud emasligi ma'nosi yo'qoladi va bunda o'z-o'zidan savolga javob berishga hojat qolmaydi.

Shunisi xarakterliki, "*Eshikni ochib qo'ymaysizmi?*" gapi orqali so'zlovchi iltimos aktini ifoda etishni maqsad qilgan bo'lsa, savolga "*Albatta*" yoki ba'zi hollarda inkorni ifoda etuvchi javob-replikani qaytarish mumkin bo'ladi. Agar so'zlovchi mazkur gap orqali buyruq aktini ifoda etishni maqsad qilgan bo'lsa, ayni gapga javob berish lozim bo'lmay qoladi. Demak, bu tipdagi ritorik so'roq gaplarda birlamchi ma'noning saqlanishi yoki yo'qolishida gapdan ko'zlangan maqsad hamda shu asosda tanlanayotgan sintaktik struktura muhim o'rin tutadi.

Sh.Safarov fikrini davom ettirar ekan, yuqorida bayon etgan xulosasiga zid fikrni ilgari suradi: "*Can you pass the salt?*" "*Tuzni*

uzatib yubora olmaysizmi?” gapini qo'llash bilan hech qachon *“Tuzni uzatib yuborishga imkoningiz (qobiliyatingiz) bormi?”* mazmunidagi savolni nazarda tutmaymiz-ku! Yagona anglashiladigan ma'no *“Iltimos, tuzni uzatib yuboring!”* bo'lsa kerak”. Xo'sh, unda qanday lisoniy hodisa kuzatilyapti? Gap ma'nosining ko'chishimi yoki nutqiy aktning bilvosita ifodalanishimi? Agarda barcha til sohiblari ushbu gap ma'nosini bir xilda, ya'ni iltimos yoki hech bo'lmaganda, buyruq mazmunida idrok etsalar, unda qanday bilvosita nutqiy harakat to'g'risida so'z bo'lishi mumkin?! *“Tuzni uzatib yubora olmaysizmi?”* iltimosni ifoda etishning umumiy qabul qilingan usulidir. Ammo *“Tuzni uzatib yuborishga imkoningiz bormi?”* deyish g'ayritabiiy tuyuladi. Demak, keltirilayotgan holatda bilvositalilik yoki ma'no ko'chish hodisasi kuzatilmaydi” [Safarov 2008, 95-96]. Ko'rinadiki, olim til egalari tomonidan bir xil idrok etiladigan gaplarda bilvositalilik yoki ma'no ko'chish hodisasi amal qilmaydi deb tushunadi. Nazarimizda, so'roq shaklidagi sintaktik struktura orqali iltimos ifodalanishining o'ziyoq *bilvositalilik* hisoblanadi. Demak, nutqiy aktning bevosita va bilvosita ifodalanish tabiati uning o'ziga xos xususiyati bo'lib, nutq egasining ifodadan ko'zlagan maqsadiga asoslanadi.

Illokutiv akt nutq egasining muayyan maqsadini aks ettiruvchi so'zlash harakati bilan bog'liq muloqot turidir. Illokutiv aktida nutq egasining maqsadi oshkora yoki yashirin ifodasiga ega bo'ladi. Kommunikativ maqsadni qay tarzda ifoda etish nutq subyektiga bog'liq. Ba'zan nutq egasi nutqiy akti hosil qilishdan ko'zlangan maqsadini bevosita ifoda etsa, ba'zan uning maqsadi nutqiy aktida yashiringan bo'ladi.

Bolalar tomonidan illokutiv aktning hosil qilinishida o'ziga xos jihatlar mavjud. Bolalar nutqida ham ba'zan kommunikativ niyatning yashiringanligi, ba'zan ochiq ifodalanganini kuzatish mumkin. Quyidagi matnni tahlil qilamiz:

– *Mana bu siz qurishingiz kerak bo'lgan 71-uyning loyihasi, dedi devoriy gazeta chiqaradigan qalin qog'ozni qo'limga berib, – mana bu esa, azizim, genplan, qurilish ob'ektingizni mana shularga qarab belgilab olaverasiz...*

Olimjon Olimjonovich ketgach, qog'ozlarning goh unisiga, goh bunisiga tikilib ancha vaqtgacha xunob bo'lib o'tirdim. Rostini aytsam “loyiha”, “genplan” degan so'zlarga hech tushunmayman. To'g'ri, qog'ozlarda mayda-chuyda chiziqlar, hech tushunib bo'lmaydigan belgilar to'lib yotibdi. Lekin kallamni har qancha ishlatam-da, hech narsaga tushuna olmayapman. Shuning uchun

ham qog'ozlarga tikilgancha, uyat ish qilib qo'ygan yosh boladek, lallayib o'tiraverdim.

– O'rtoq injener, ishga qachon tushamiz? – so'radi ishchilardan biri.

– Hozir men loyihalarni bir o'rganib olay, – dedim sir boy bermay... Shu payt boshimga ajoyib bir fikr keldi-yu, sevinganimdan qarsak chalib yuborayozdim.

– **Ilgarilari qurilishda ishlaganlar bormi?** – deb so'radim. O'n beshtasi tengdan qo'l ko'tardi. Sevinchimga sevinch qo'shildi.

– Ish boshlashdan avval sizlardan imtihon olmoqchiman.

– Marhamat! – dedi yetmish kishi bir og'izdan.

– **Qani ayting-chi, qo'limdagi qog'ozlarning qaysi biri loyiha-yu, qaysi biri genplan?** – Shunday deb qog'ozlarni baland ko'tardim. YOnginamda o'tirgan jingalak sochli yigit.

– O'ng qo'lingizdagi loyiha, chap qo'lingizdagi genplan, – deb javob berdi.

– **Molodets! Qani kim aytadi, qurilishning birinchi ishi nimadan boshlanadi?**

– Fundamentning o'rnini qazishdan, – degan ovozlari eshitildi har tomondan.

– **Fundamentning chuqurligi qancha bo'lishi kerak?**

– Loyihada ko'rsatilganidek.

Shunga o'xshash savollarni ketma-ket beraverdim, shunga o'xshash javoblarni ham ketma-ket olaverdim. Bir mahal bunday qarasam, ancha-muncha narsadan xabardor bo'lib, aqlim to'lishib qolibdi. "Qani endi ishga o'rtoqlar!" – deb yubordim (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib").

Ushbu matnda Hoshimjon Ro'ziyev tomonidan hosil qilingan so'roq gap shaklidagi nutqiy aktlarda nutq egasining asl kommunikativ maqsadi yashiringan. Nutq egasining maqsadi adresatlarni o'zi aytganidek, "imtihon qilish" emas, balki o'zi uchun voqelik haqidagi noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni bilib olish. Albatta, bu turdagi nutqiy aktlarda illokutsiyaning kuchi yuqori darajada bo'ladi.

Illokutiv akt nutqiy aktning barcha turlarida birdek ishtirok etadi. Chunki nutq egasi biron-bir nutqiy aktini beixtiyor, hech qanday maqsadsiz hosil qilmaydi. Iltimos yoki buyruq aktini ifoda etish uchun nutq egasi o'z oldiga ayni shu kommunikativ niyatni qo'yadi. Mazkur niyat muayyan nutq ko'rinishlari orqali yuzaga chiqadi. Bu holat bolalar nutqiy faoliyatiga ham xos. Hatto maktabgacha yoshdagi bolalar ham iltimos yoki buyruq aktini hosil

qilishda o'z kommunikativ niyatlariga asoslanadilar.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bolalar kommunikativ faoliyatida illokutiv aktning tasdiq, so'roq, iltimos, buyruq, kechirim, istak, talab kabi turlari hosil qilinadi. Kattalardan farqli tarzda bolalar nutqida maslahat, kinoyaviy tasdiq, ogohlantirish, va'da aktlari kam uchraydi. Rozi-rizolik akti bolalarga deyarli xos emas. Nutqiy aktning bu kabi mazmuniy turlari ba'zan sintaktik strukturaga muvofiq tarzda shakllansa, ba'zida presuppozitsiya orqali yashirin ifodasiga ega bo'ladi. Bolalar kommunikativ faoliyatida ko'p uchraydigan nutqiy akt ko'rinishlarini semantik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Xabar akti:** *Dadasi ishdan qaytganida Mo'tabar oyisining uchug'i haqida gapirib berdi: **Dada, bilasizmi, oyimlarning burunlariga puchug chiqibdi*** (M.Sodiqova. "O'zi ham shirin, so'zi ham").

2. **So'roq akti:**

– ***Oyi, odamga uyqu qaerdan keladi, uyg'onganda uyqu qayoqqa ketadi?*** (M.Sodiqova. "O'zi ham shirin, so'zi ham")

Shuningdek, bolalar so'roq shaklidagi sintaktik qurilmalar orqali yashirin xabar, buyruq aktlarini ham ifoda etadilar. Masalan:

– *Baribir, – deydi oyim o'ychan ohangda. – Qonqusniyam yaxshi ko'rgin.*

– *Nega?*

– *Nega deganda, Qonqus o'zimizning anhor. Undan o'zimiz suv ichamiz.*

– ***O'shanaqa qilsam, boshqa daryolarniyam yaxshi ko'rib qolaman-a?*** (O'Hoshimov. "Dunyoning ishlari"). (*Boshqa daryolarni ham yaxshi ko'rib qolaman – xabar akti*)

– ***Nega kulasan?** Undan ko'ra, tezroq ketaylik bu erdan.* (N.Fozilov. "Bolaligim – poshsholigim") (*Kulma. – buyruq akti*)

3. **Iltimos akti:**

Akram birdan xursand bo'lib ketdi:

– ***Dadajon, bo'lmasa magazinga boraylik! Menga yangi o'yinchoq mashinalardan olib bering!*** (P.Qodirov. "Akramning sarguzashtlari").

Buyruq akti:

Oyisi ishga ketayotganida Salimjon doim tayinlab yuboradi:

– ***Oyi, menga katta mashina, kattakon konfet va kattakon tufli olib keling*** (M.Sodiqova. "O'zi ham shirin, so'zi ham").

4. **Undash akti:**

... *Shu payt Akramning o'rtog'i Shavkat darvozadan boshini*

suqib:

– **Chiq, o'ynaymiz! – dedi. – Mashinalaringni opchiq!**
(P.Qodirov. "Akramning sarguzashtlari").

6. Kechirim akti:

– *Xayoling qayoqda edi, a? Nega darsga quloq solmaysan?*

– **Meni kechiring, oyi...** (P.Qodirov. "Akramning sarguzashtlari").

7. Va'da akti: Talabimizni amalga oshirsangiz, hamma fanlardan besh olib o'qishga so'z beramiz, sho'xlik qilmaymiz.
(X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib")

8. Istak akti:

– **Hi-i... Bitta qo'g'irchoq bo'lsa,**

Kaliti buzilmasa,

Ko'zini yumganida

Meni ham ko'rib tursa... (G'.G'ulom. "O'ylashni o'rganamiz").

9. Talab akti:

Ertasiga choydan keyin oyimning mahsi kiyayotganini ko'rib, mehmonga o'tlanayotganini sezdim-u, darrov ergashdim.

– **Menam, menam boraman!**

– *Mehmonga ketayotganim yo'q, – dedi oyim bosh chayqab. – Ishim bor.*

– **Boraman, oborasiz!** (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari")

10. Taklif akti: ... Ularning o'rni bo'sh qolmasin desangiz, futbol haqida fan bo'lsa, o'shani kiritsa ham bo'ladi (X.To'xtaboyev. "Sariq devni minib").

11. Rad etish akti:

– *Bizning oyimiz zo'r, – dedi Olimjon, – doktor! Buning boshini bizning oyimiz tuzatgan. Ukol qilgan. SHunaqami, Bahodir? Ana, ko'rdiz!*

– **Ho! – dedi Karimjon, – bizning oyimiz zo'r** (M.Murodov. "Kimning oyisi zo'r").

12. Orzu-havas akti:

– *Paroxodga tushib nima qilasan?*

– **Dengizchi bo'laman.**

– *Avval ximik bo'laman der eding-ku.*

Akram xiyol o'ylanib turdi-da, javob topdi:

– **Dadajon, Toshkentga borsak, men yana ximik bo'laman** (P.Qodirov. "Akramning sarguzashtlari").

13. Minnatdorlik akti:

– *Bobongga nima deyishing kerak? – so'radi Sanjar aka undan.*

– **Rahmat, bobojon** (P.Qodirov. "Akramning sarguzashtlari").

14. Ogohlantirish akti:

– **Senimi, shoshmay tur,** – dedi Mahfuza akasiga yeb qo'yguday o'qrayib...

– Qilmishingga yarasha...

– **Oyimdan o'lasan hali** (N.Fozilov. “Bolaligim – poshsholigim”).

Berilgan misollardan kuzatiladiki, bolalar muloqot jarayonida nutqiy aktning bir qator mazmuniy turlarini qo'llaydilar. Bolalar tomonidan hosil qilingan nutqiy aktlarning har bir mazmuniy turi o'ziga xos sintaktik strukturaga ega, ayrim akt ko'rinishlari hatto maxsus leksik-semantik qatlamiga egaligi bilan ajralib turadi. Jumladan, kechirim aktida *kechiring*, maktab yoshidagi bolalar muloqotida *uzr, uzr so'rayman* kabi nutqiy etiket ifodalari uchraydi; iltimos aktida esa *iltimos* leksemasi, fe'lning 2-shaxsdagi buyruq-istak mayli shakllari faol ishtirok etadi.

Illokutiv akt tahlilida *illokutsiya kuchi* muammosi muhim o'rin tutadi. Nutq egasining illokutiv aktda aks etgan kommunikativ niyati darajasi asosida illokutiv kuch belgilanadi. M.Hakimov illokutiv kuchni so'zlovchining talaffuz va ifodalash imkoniyatlari deb nomlash maqsadga muvofiq ekanini qayd etadi. Uning fikricha, “ifodalash imkoniyati (illokutiv kuch) tushunchasi so'zlovchining idrok qilish qobiliyati hamda uni bayon qilishdagi illokutsion imkoniyat darajalaridir” [Hakimov 2001, 125]. Anglashiladiki, illokutsiya kuchi nutq egasining axborotni bayon qilish usuli, taktikasi bilan bog'liq.

Bolalarda ham muayyan axborotni bayon qilishning o'ziga xos usullari mavjud. Bolalar ba'zan kommunikativ niyatni oshkora ifodalamaydilar, ular suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ifodaning yashirin ko'rinishlaridan foydalanadilar. Bolalar illokutiv akt orqali kommunikativ niyatlarini yashirin ifodalashda quyidagi gap turlaridan unumli foydalanadilar:

1. **Xabar aktini yashirin ifodalovchi so'roq gaplar.** Ba'zan bolalar so'roq gaplar orqali xabar aktini sodir etadilar. Masalan:

... *Hozir u bizlarga, ya'ni maktab bolalariga brigadir: bug'doy o'rimida ham, paxta yaganasiyu chekankasidayam, xirmondayam... Mana erta-indin ariq tozalashga, chalovga chiqsak, unda ham bizlarga bosh-qosh bo'ladi. Frontda ko'rgan qiziq-qiziq voqealarni aytib beradi. U kishi bilan birga ishlagan odam hech ham charchamaydi, zerikmaydi ham. Shunday odamni qanday qilib “Qo'chqor cho'loq” deysan?* (N.Fozilov. “Bolaligim – poshsholigim”).

Mazkur dialogik muloqotda bola tomonidan aytilgan

“Shunday odamni qanday qilib “Qo‘chqor cho‘loq

“deysan?” ritorik so‘roq gapi orqali “Shunday odamni “Qo‘chqor cho‘loq” deb bo‘lmaydi” presuppozitsiyasi ifodalangan. Bola shunday odamni “Qo‘chqor cho‘loq” deb bo‘lmasligi haqidagi xabarini so‘roq gap shaklida bayon etgan.

Albatta, so‘roq gap orqali bu tarzda xabar aktining ifodalanishida axborotning ta‘sir kuchini oshirish, subyektiv baho munosabatini aks ettirish kabi kommunikativ-pragmatik maqsadlar ko‘zda tutiladi.

2. Tasdiq aktini yashirin ifodalovchi darak gaplar.

Bunday akt turida bolalar darak gaplar orqali gap sintaktik strukturasiga nomuvofiq bo‘lgan yashirin xabarni qat‘iy tasdiq yo‘li bilan ifoda etadilar. Masalan:

– Xo‘sh, endi navbat kimniki? – so‘radi bobojonim.

– Halidan buyon men tikka turibman-ku, – arazlaganday qilib dedi Dilijon (X.To‘xtaboyev. “Jannati odamlar”).

Berilgan matnda bola tomonidan ifoda etilgan *“Halidan buyon men tikka turibman-ku”* darak gapi orqali yashirin xarakterdagi *“Navbat meniki”* axboroti anglashiladi. Bu axborot matn asosida yuzaga kelgan kontekstual presuppozitsiya hisoblanadi.

3. Buyruq aktini yashirin ifodalovchi darak gaplar.

Bu turda bolalar darak gaplar orqali buyruq aktini sodir etadilar. Masalan:

Sardor Rahimjonov (4 yosh)ga otasi: – Koptogingni ko‘chada o‘ynagin, – dedi hovlini ko‘rsatib. Sardor: – U ko‘chamas, hovli. (U yerni hovli deng)

Ushbu matnda bola nutqida qo‘llangan darak gap orqali buyruqni aks ettiruvchi yashirin axborot ifodalangan. O‘zbek madaniyatida bolalarning otasiga nisbatan buyruq aktini qo‘llashi odobsizlik hisoblanadi. Bu vaziyat bolaning buyruq shaklidagi talabini darak gap orqali “yumshoq” tarzda ifoda etishiga sabab bo‘lgan.

4. Iltimos aktini yashirin ifodalovchi so‘roq gaplar.

Bolalar ko‘pincha so‘roq gaplar orqali iltimos aktini sodir etadilar. Masalan: *“Napayo‘n shiyinakammi?”* (Abdulaziz Abdujabborov, 2 yosh-u 6 oy).

Maktabgacha yoshdagi bola nutqida qo‘llangan mazkur so‘roq gap orqali iltimos akti sodir etilgan. Bola so‘roq shaklidagi nutqiy akt orqali *“Napoleonni kesib bering”* iltimos xarakteridagi propozitsiyani ifoda etishni niyat qilgan. Bolaning iltimosini bu yo‘sinda ifoda etishiga yosh davriga xos iymonish, uyalish kabilar

sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Ma'lumki, mazkur yosh davrida bolalarning mantiqiy tafakkuri to'liq shakllanmagan bo'ladi. Biroq ularning kommunikativ maqsadini yashirin holda ifodalashi uchun lisoniy imkoniyatlardan zukkolik bilan foydalanishga intilishi tahsinga sazovor.

5. Iltimos aktini yashirin ifodalovchi buyruq gaplar.

Bolalar buyruq gaplar orqali iltimos aktini ham sodir etadilar. Masalan:

Faxriyor uch yarim yashar.

– **Adajon, sharim paqillaganini eshitdingizmi?**

– *Eshitdim, o'g'lim.*

– **Qattiq paqilladi-a?**

– *Ha, qattiq paqilladi.*

– **Judayam qattiq paqilladi-a?**

– *Judayam qattiq paqilladi.*

– **Endi boshqa shar obering!** (O'Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar").

Ko'rinadiki, "*Endi boshqa shar obering*" buyruq gapi orqali iltimos akti hosil qilingan. Aslida bola so'roq gap orqali iltimos aktini ifodalashga harakat qiladi, ammo kommunikativ maqsadiga to'la erisha olmagach, u so'roq gapga yuklangan pragmatik mazmun, ya'ni iltimos aktini suhbatdoshiga buyruq ohangida etkazadi.

Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, bolalar kommunikativ maqsadni amalga oshirishda kattalar kabi illokutiv aktning turli ko'rinishlaridan foydalanadilar. Kommunikativ niyat yashirin ifodalangan akt turlarida illokutsiyaning kuchi yuqori darajada bo'ladi.

Xulosa

Xullas, nutqiy harakatni anglatuvchi kommunikativ aloqaning verbal ifodali birligi nutqiy akt sanaladi. Bolalarning muloqot jarayonida qanday nutqiy akt turini tanlashi ularning psixologik holati, ayniqsa, yosh xususiyatlari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'proq so'roqni ifoda etuvchi nutqiy akt shakllaridan foydalanadilar. Bu holat ularning tashqi olamni bilishga o'ta qiziquvchanliklari bilan bog'liq. Bolalar nutqida illokutiv aktning tasdiq, so'roq, iltimos, buyruq, kechirim, istak, talab kabi turlari hosil qilinadi, maslahat, kinoyaviy tasdiq, ogohlantirish, va'da aktlari kam uchraydi, rozi-rizolik akti deyarli kuzatilmaydi. Bolalarga xos illokutiv akt turlari ba'zan sintaktik strukturaga muvofiq tarzda, ayrim holatlarda

presuppozitsiya orqali yashirin ifodalanadi.

Adabiyotlar

- Ҳакимов, М.Ҳ. 2001. *Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини*: Филол. фан. д-ри ... дисс. Тошкент.
- Остин, Дж. 1986. *Слово как действие. Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов*. Вып. XVII. Москва.
- Серль, Дж. Р. 1986. “Что такое речевой акт”. *Новое в зарубежной лингвистике*. Вып. 17. Москва.
- Серль, Дж.Р. 1986. “Классификация иллокутивных актов”. *Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов*. Москва.
- Гонгало, Е.Ф. 2011. “Теория речевых актов Дж.Остина и Дж.Серля”. *Материалы V Международной научной конференции «Культура, наука, образование в современном мире»*. Гродно.
- Почепсов, О. 1986. *Основы прагматического описания предложения*. Киев.
- Сафаров, Ш. 2008. *Прагмалингвистика*. Тошкент.

Semantic classification of illocutionary acts characteristic of children's

Munavvara Kurbanova ¹

Abstract

The pragmatic essence of the concept of “speech act” is explained in the article. The necessary components of the speech act are noted. What type of speech act to use in the process of communication depends on the communicative goal of the speaker, but the mental and emotional state of a person, gender characteristics, age aspect also have a serious impact on the choice of the type of speech act. In particular, it was pointed out that children are clearly manifested in their speech activity. It explains the causes of illocution in children's communicative activities. Illocutionary acts related to their speech are classified according to their semantic features. A number of meaningful types of speech acts are used

¹ Munavvara A. Kurbanova – Doctor of Philological Sciences, Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: munavvara2013@yandex.ru

ORCID ID: 0000-0002-3899-232X

For citation: Kurbonova, M. 2024. “Semantic classification of illocutionary acts characteristic of children's”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 18-31.

in children's communication, each meaningful type of speech acts created by them has its own syntactic structure, some acts are even distinguished by having a special lexical-semantic layer, illocution. It is said that the power of the speaker is related to the method and tactics of the speaker, that children also have their own ways of expressing certain information, and that they express their communicative intent secretly.

Key words: *Illocution, speech act, speech behavior, speech act, speech situation, children's speech, communicative purpose, communicative activity, pragmalinguistics, presupposition.*

References

- Hakimov, M.H. 2001. *O'zbek tilida matnning pragmatik talqini*: Filol. fan. d-ri ... diss. Toshkent.
- Ostin, Dj. 1986. *Slovo kak deystvie. Novoe v zarubejnoj lingvistike: Teoriya rechevix aktov*. Vip. XVII. Moskva.
- Serl, Dj. R. 1986. "Chto takoe rechevoy akt". *Novoe v zarubejnoj lingvistike*. Выр. 17. Moskva.
- Serl, Dj.R. 1986. "Klassifikatsiya illokutivnix aktov". *Novoe v zarubejnoj lingvistike: Teoriya rechevix aktov*. Moskva.
- Gongalo, Ye.F. 2011. "Teoriya rechevix aktov Dj.Ostina i Dj. Serlya". *Materiali V Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii «Kultura, nauka, obrazovanie v sovremennom mire»*. Grodno.
- Pochepsov, O. 1986. *Osnovi pragmaticheskogo opisaniya predlozheniya*. Kiev.
- Safarov, Sh. 2008. *Pragmalingvistika*. Toshkent.